

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,
т.ф.д., проф.*

Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.

Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.

Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.

Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.

Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.

Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.

Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.

Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.

Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.

Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc

Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.

Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.

Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.

Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.

Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.

*Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,
проф.*

Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.

Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.

Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.

Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.

Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,

б.ф.д., академик

Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.

Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.

Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (99), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 242 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Akhmedov U. Linguistic interpretations of semantic derivation	5
Bahodirova F.B. Til va nutq buzilishlarida neyrolingvistikaning roli	8
Begizova M. Implementing pair work in efl classroom	11
Bekmurodova I., Shamsiddinov B. Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida psixologizm prinsiplari	14
Boltayeva G.Sh. O‘zbek va fors-tojik adabiyotida muxammas janri taraqqiyoti	16
Djumaniyazova Z.N. Ingliz va o‘zbek xalq maqollarida ayol obrazining ifodalanishi	19
Ganiyeva Sh.A. Frazelogik birliklarda shartlanganlik munosabati	21
Ibragimov N. The role of bilingualism in the development of social sciences	24
Igamuratova D.Ch. “Gapiruvchi” ismlar tarjimasida borasida ayrim mulohazalar	26
Jabbarova L. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining fonetik kompetentsiyalarini oshirishning ahamiyati	30
Jalilova L.J., Nematova R. Rey Bredberining «Farengeyt bo‘yicha 451 daraja» asarida ijodkor va ijod psixologiyasi	32
Jalilova L.J., Salimova D.H. Analysis of the methods of using satire in the works of Said Ahmed's “Qoplun,” and George Orwell's “Animal farm”	37
Jamolova Z.N. Adabiy obzorga xos poetik xususiyatlar	40
Khodjaeva D., Eshpulatova M.M. Comparative analysis of introductory words in Uzbek, English and Russian languages	43
Madjidova R.U., Khusanov E.D. Ingliz adabiy tili va unda dialektizmlarning xususiyatlari	46
Mahmudova N. Sodda gapning murakkablashuvi xususida	49
Mamadaliyeva S.A., Vardiyashvili G.A. Adabiy -tanqidiy maktubning genezisi	51
Mamatova D.M. Xitoy tilida ta’ m bildiruvchi sifatlar diskursi	53
Mamirbaeva D.Dj., Jumamuratova D. The Importance of Project-based tasks in Developing Pedagogical Discourse Analysis	57
Masharipova V.S. Asar qahramonlarning imijlarini tavsiflashning no verbal usullari	60
Nematova N.A. Konnotatsiyani lingvokulturologiyada aniqlash muammosi	63
Niyazmetova D., Kazakova N.D. The usage-based theory of language acquisition	67
Novik K.P. English and russian proverbs in the pragmalingvocultural aspect	70
Qobilova N.S., Ollomurodov A.O. O‘zbek va ingliz tilidagi konseptual metaforalar tarjimasining qiyosiy tahlili	73
Qodirova N. “Olami sibyon” – “tarjumon” ilovasi	77
Rahmatova M.M., G‘aniyeva N.G‘. XX -XXI asr Amerika she‘riyati tendensiyalari	80
Rajabov A.U. O‘zbek zamonaviy adabiyoti rivojlanish bosqichlari	82
Rajabov A.U. O‘zbek zamonaviy adabiyoti taraqqiyoti	86
Rakhmatova M.M., Botirova N.F. Poetic voice of Alma Luz Villanueva’s “Mother, may i?”	89
Ribinskaya E. G. Analysis of slang as a subsystem of language	92
Rustamova Sh.A. Nutqiy kalimalarining tarjima qilinishi: lingvistik tahlil	94
Ruziyeva N.Z. Evfemizm va sinonimiya munosabati xususida	97
Safarova F.N. Derivation of gastronomy terms in english and uzbek languages	99
Safarova M.Z. Buxoro viloyati hududidagi etnotoponimlarning grammatik tuzulishi xususida	102
Saidova Z.Kh. Lexico-semantic classification of phraseological units and their relation to the lexical layer	105
Samandarova G.I. Sohaga oid lingvistik terminologiya tahlil qilish tushunchasi	108
Samandarova L.S. Erkin Samandar romanlarida mif, afsona va rivoyatlarning o‘rni	110
Samandarova S.F. George Orwell and his place in the development of new journalism – a new trend in literature	113
Saydakhmatova H.I. Zamonaviy kognitiv lingvistikada kontsept tushunchasi va unga aloqador hodisalar	115
Sobirova M.J. Terminologik tezauruslar dolzarbligi va ularning lingvistik ontologiya uchun ahamiyati	118
Sultanova D., Rajabboyeva F. Problems of translating phraseological units from uzbek to English	120

**BUXORO VILOYATI HUDUDIDAGI ETNOTOPONIMLARNING GRAMMATIK
TUZULISHI XUSUSIDA**

M.Z.Safarova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada joy nomlarining o'ziga xos grammatik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Etnonimlar va ular asosida shakllangan toponimlarning yasash masalalari bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: toponim, etnonim, etnotoponim, etnos, morfologik, grammatik, yasash, konversiya usuli, sintaktik usul.

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические грамматические особенности топонимов. Представлены взгляды на создание этнонимов и топонимов на их основе.

Ключевые слова: топоним, этноним, этнотопоним, этнос, морфологический, грамматический, образование, способ преобразования, синтаксический способ.

Abstract. This article discusses the specific grammatical features of toponyms. Views on the creation of ethnonyms and toponyms based on them are presented.

Key words: toponym, ethnonym, ethnotoponym, etnos, morphological, grammatical, formation, transformation method, syntactic method.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligida qadimiy davrlardan beri sayqallanib kelayotgan leksik qatlamlar mavjud. Ana shulardan biri etnotoponimlardir. Etnotoponimlar muayyan hududda yashagan yoki hozirda ham yashab kelayotgan urug', qabila, xalq va millatlarning nomlari asosida yuzaga kelgan joy nomlari hisoblanadi.

Etnonimlar negizida yotgan lug'aviy o'zaklar, yasama leksema hamda so'z shakllari turlicha. Mana shu xususiyat o'zbek tilidagi etnonimlarni grammatik strukturasi ko'ra o'rganishni va ularning lisoniy tabiatini ochishni talab qiladi. Etnonimlar grammatik shakllariga ko'ra quyidagicha guruhlarga bo'linadi.

Sodda etnonimlar. Sodda etnonimlar grammatik tabiatiga ko'ra qo'shma, birikmali, juft va takror tuzilmali etnonimlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda asosiy mezon etnonim tarkibi bitta so'zdan iborat bo'lishidir. Sodda etnonimlarni tashkil qilgan lisoniy materialning tuzilishiga qarab ikkiga ajratish mumkin: *tub etnonimlar, yasama etnonimlar.*

O'zbek etnonimiyasi nomlarining sezilarli qismini tub etnonimlar tashkil qiladi. Ularni tub deb bilish ikki xususiyatga asoslanadi:

1. Etnonim aslida qadimiy tub leksemadan iborat bo'lganligiga: *qirq, noqi, uz, yuz, juz, uyas, as* kabi;

2. Etnonim hozirda bo'linmas o'zak tarzida tushunilgan so'zdan iboratligiga: *arlot, alday, bag'al, bag'ish, bo'ston, gadoy, jobu, jatta* va b.

Yasama etnonimlarda nom tarkibidagi qo'shimchadan nomning yasama ekanligi, uning o'zak va qo'shimchaga ajratish imkoni borligi yaqqol ko'rinib turadi: *qirdor, baymoqli, boltali, o'roqli, davurchi* kabi.

Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) konversiya usuli; 2) morfologik usul; 3) sintaktik usul [2].

Shulardan morfologik usul orqali sodda yasama etnonimlar hosil qilinishi mumkin.

Morfologik usul. Turkiy etnotoponimlarning yasalishi masalasi bo'yicha turkologlardan N.ABaskakov, D.E.Eremev va turkman tilshunosi S.Otaniyozovlar to'xtalgan.

Etnonimlarni hosil qilishda tildagi mavjud so'z yasovchi morfemalar ishtirok etadi, lekin bu morfemalar etnonimlarni yasashda qatnashgan davri qadimiyligi, hozirda ham iste'molda ekani yoki iste'molda emasligiga ko'ra farqlanadi. Mana shu jihatlari ko'ra etnonimlar tarkibida uchraydigan qo'shimchalarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Tarixan funksional qo'shimchalar: *-chi, -di//ti, -jin, -r, -s//z, -t//d, -boy, -chi//ji, -chin//shin, -ch//j, -q//oq, -qu//g'u, -man//mon, -n, -g'a//g'i, -yon//on* kabi.

2. Tarixan va zamonaviy (sinxron) funksional qo'shimchalar: *-li, -chi, -lik//liq, -ma, -v(-uv), -lar* va b.

Nomshunos olim K.Marqayev tadqiqotlarida etnonimlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi *-chi* (*qushchi*), *-li* (*bolg'ali*), *-i* (*po'loti*), *-v* (*-uv*) (*jalov, tilov*), *-cha* (*qoracha*), *-lik* (*-liq, -luq*) (*tog'liq*), *-lar* (*beglar*), *-y* (*-ay*) (*chig'atoy*), *-l* (*-il, -ul, -vul*) (*chigil*), *-chin -shin//jin//shun//sin//sun* (*ushun//uyshun*), *-r* (*-ar, -ur, -ir*) (*og'ar*), *-s//z* (*o'g'uz*); *-n* (*-an, -in, -un*) (*bahrin//barin*) va yana boshqa ko'plab affikslarning etnonim hosil qilishi xususida fikrlar tahlil etilgan [2; 17-19].

Toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifi ham so'zlarning tuzilishiga ko'ra tasnifidan farqlanmasligi lozim [3; 81].

Toponimlarga oid tasniflarga asoslangan holda Buxoro viloyati etnotoponimlarini tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sodda tarkibli etnotoponimlar:

a) tub sodda etnotoponimlar;

b) yasama sodda etnotoponimlar.

2. Qo'shma tarkibli etnotoponimlar.

Tarkibi birgina lug'aviy asosdan iborat obyekt nomlari sodda tarkibli etnotoponimlar hisoblanadi.

1) *tub sodda etnotoponimlar*. Bunday etnotoponimlarga Arlot//Alot//Olot (*Peshko' tumani Sadir MFY*), Arablar-Arabon (*Shofirkon t., G'ijduvon t. Ulfatbibi MFY, Jondor t., Vobkent t.*), Afg'onon (*Buxoro t., Amirobod, Guliston MFY*), Bahrin (*Romitan t. Mirishkor MFY*), Burqut (*Vobkent*), Jaloir (*Jondor t., Qorako'l t.*), Mang'itlar-Mang'iton, Minglar-Mingon, Mugalon-Mug'alon-Mo'g'ilon-Mo'g'ulon, Nayman, Naymancha, Org'un, Qalmoq, Qatag'an, Qipchoq, Qirqlar, kabi ellikdan ortiq nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2) *yasama sodda etnotoponimlar*. Izlanishlarimiz natijasida Buxoro viloyati hududida bunday etnotoponimlarni uchratmadik.

Sodda tub etnonimlar, asosan, apellyativlarning onomastik konversiya usuli asosida toponimga ko'chishdan hosil bo'ladi, ya'ni toponimizatsiyalashadi. Sodda tub etnonimlarning lug'aviy asosi ma'noviy va morfologik jihatdan esa turlicha bo'ladi.

O'zbek tilida tub sodda asosli etnotoponimlarni morfologik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1) ot asosli sodda tub etnotoponimlar: Arlot//Alot//Olot (*Peshko' tumani Sadir MFY*), Arablar (*Shofirkon t., G'ijduvon t. Ulfatbibi MFY, Jondor t., Vobkent t.*), Afg'onon (*Buxoro t., Amirobod, Guliston MFY*), Bahrin (*Romitan t. Mirishkor MFY*), Burqut (*Vobkent t.*), Jaloir (*Jondor t., Qorako'l t.*).

2) son asosli sodda tub etnotoponimlar: Mang'itlar – mo'g'ulchada ming soni manga so'zi bilan ifodalangan[2; 161] (*Peshko' t. Quchoq MFY*), Mingon (*Shofirkon t. Bobur MFY*), Nayman (*Vobkent t.*), Qirqlar (*Romitan t.*), Yuzon (*Buxoro t. Bog'ikalon MFY*).

Kuzatishlarimiz natijasida, o'zbek tilida sodda tub etnotoponimlarning asosiy qismini morfologik jihatdan ot asosli nomlar tashkil etadi. Yasama sodda asosli etnotoponimlarni esa uchratmadik, chunki etnonim tarkibidagi yasovchi qo'shimcha asos tarkibiga singib ketgan bo'lib, bugungi kunda ular ajralmas holda saqlanib qolgan.

Yasama etnonimlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular tarkibidagi qo'shimchadan nomning yasama ekanligi, uning o'zak va qo'shimchaga ajratish imkoni borligi yaqqol ko'rinib turadi: *baymoqli, boltali, o'roqli, davurchi singari*.

Yasama etnonimlarga qo'shma, birikmali, juft va takror tuzilmali nomlar ham kiradi, ular birdan ortiq leksemalarning qo'shilmasidan iborat bo'ladi va grammatik jihatdan ajraladi. Bunday nomlarning aksariyati qadimiy emas, balki nisbatan keyingi davrlarning mahsuli hisoblanadi: *sario'roqli, sariqipchoq* etnonimlarida o'roqli va qipchoq etnonimlari qadimiydir, ularning qo'shilmasi keyingi davrlar mahsuli hisoblanadi. Shunga ko'ra, *oqmang'it, qoramang'it* nomlaridagi mang'it etnonimi qadimiydir, oq, qora qismlari qo'shib yasalgan etnonimlar esa keyingi hosilalardir.

Demak, yasama etnonimlar lisoniy trakibiga ko'ra: a) qo'shma etnonimlar; b) birikmali etnonimlar; d) juft va takror etnonimlarga bo'linadi.

Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli; 2) morfologik usul; 3) sintaktik usul.

Konversiya usuli. Ma'lumki, til lug'at tarkibining boyishi uning so'z yasaliishi bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Professor A.G'ulomov ta'kidlaganidek: "So'z yasaliishi, umuman qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin, yangi so'z hosil qilishdir". Ya'ni lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli biror bir so'zning boshqa so'z vazifasiga o'tishi va yangi ma'noda qo'llanishini ifodalaydi.

K.Marqayev qarashlariga ko'ra, konversiya usuli yordamida etnonim vazifasiga o'tuvchi so'zlar leksik-morfologik tarkibiga jihatdan quyidagi so'z turkumlariga mansub:

1. Ot so'z turkumi: *bolta, chelak, cherik, laylak, darg'a, ko'rpa, burloq, boymoq, qilich, temirchi, po'latchi, buyrachi* va boshqa.
2. Sifat so'z turkumi: *chandir, shirin, qora, sari//sariq, qizil, uzun, ko'sa, qilichli* va b.
3. Son so'z turkumi: *ming, yuz, nayman (sakkiz), qirq, to'g'iz* va b.
4. Ba'zi genetik jihatdan yasama, ammo hozirda tub so'z deb tushuniluvchi leksemalar: *saydov, saroy, so'zoq, uvoq, qo'chqor, qozon, ilon, bo'rboy, xalaj* va b.
5. Hozirda ma'nosi qorong'ilashgan ba'zi tub, arxaik so'zlar: *andoz, andi, arg'u, arg'in, mesit, laqay, chuyut, qiyot, megana, cherik, qitay, uyrot* va b.
6. Kishi ismlari asosida hosil bo'lgan etnonimlar: *eshmattoy, niyozboy, tilovmat, avlaziz* va b. [2].

Sintaktik usul. Tadqiqotlarimiz natijasida to'plangan etnotoponimlarning yarmi qo'shma etnonimdan hosil bo'lgan. Bunday qo'shma etnonimlarning yasaliishidagi ko'zga tashlanuvchi xususiyatlardan biri nom tarkibidagi asosiy komponentning birdan ortiq nom tarkibida takrorlanib kelish orqali yangi etnonimning paydo bo'lishidir. Ushbu yasaliish modelida *to'p, to'da, tirnoq, bosh, o'g'il, botir, boy, kalla, avloq, oq, qora, besh, yetti, uch, to'rt, chol, ola* kabi so'zlar orqali etnonimlar hosil qilish mumkin[2; 20].

Buxoro viloyati etnotoponimlarini ham yuqoridagi tahlil usullari orqali tahlil qilish mumkin.

Komponentlarining qaysi so'z turkumlariga oidligiga ko'ra etnotoponimlarni tahlil qilish:

1) *ot+ot ko'rinishidagi etnotoponimlar.* Bunday tarkibli toponimlarga *Arabdiyor, Arabguzar, Arabsaroy, Do'rmon Arablari, Bog'iturkon, Mang'itobod, Naymandiyor, Qipchoqqorovul, Qo'ng'iro't eli, Urganchmahalla, Urganjidiyor, O'zbeksaroy* kabilarni kiritish mumkin.

2) *sifat+ot ko'rinishidagi etnotoponimlar.* Buxoro viloyati hududidagi etnotoponimlarni tahlil qilish jarayonida, sifat+ot birikmasi tarkibida, asosan, katta, kichik, ko'hna kabi sifatlarni uchratdik. Masalan, *Katta Arablar, Katta Arabxona, Katta Do'rmon, Kattabayot, Katta Saroy, Katta Urganji, Kichik Saroy, Ko'hna Urganji, Sharqiy Qatag'an, Sharqiy O'zbekon, O'tiq Do'rmon* kabilar.

3) *ravish+ot ko'rinishidagi etnotoponimlar.* Bu turdagi toponimlar, asosan, bir qabila yoki urug'ni boshqa biridan farqlash vazifasini bajaradi va bular uchun quyi va yuqori so'zlari indikator bo'lib xizmat qiladi. Bularga *Quyi Arablar, Quyi Qalmoqlar, Quyi Qo'ng'iro't, Quyi Urganji, Quyi Xalach, Quyi O'zbekon, Yuqori Arablar, Yuqori Arabxona, Yuqori Olot, Yuqori Qatag'an, Yuqori Qo'ng'iro't, Yuqori Saroy, Yuqori Xalach* kabi etnonimlarni kiritishimiz mumkin.

4) *ravish+son ko'rinishidagi etnotoponimlar.* Bu shakldagi etnonimlar ko'p uchramaydi: *Quyi Nayman, Yuqori Minglar* kabi.

5) *son+sifat ko'rinishidagi etnotoponimlar:* *Mang'itobod, Naymanobod* kabi.

6) *sifat+son ko'rinishidagi etnotoponimlar:* *Ko'hna Nayman* kabi.

7) *son+ot ko'rinishidagi etnotoponimlar:* *Mang'itdiyor, Naymandiyor* kabi.

Ammo viloyat etnotoponimlarini tahlil qilish davomida *ot+fe'l (Toshiyorar – Qashqadaryo), taqlid so'z+ot (Vodarig' – Shahrisabz tumani)* kabi ko'rinishlardagi joy nomlarini uchratmadik.

Yuqoridagilardan ko'rinib turganidek, morfologik tamoyilda etimologik tahlil qilinayotgan etnotoponimlardagi ma'noli bo'laklarning qanday lingvistik birliklardan tuzilishiga ko'ra farqlanib turilishi ahamiyatlidir.

Xullas, viloyat hududida joy nomi sifatida saqlanib kelayotgan turli qabila va urug' nomlari asosida shakllangan va insonlarning ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega

bo'lgan nomlarini to'plash, ularni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish, shu millat hamda xalq tilidagi milliy, umumbashariy, tarixiy jihatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Марқаев К. Ўзбек тили этнопонимларининг лисоний тадқиқи. Автореферат, – Тошкент: 2007. 20-бет.
3. Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. 161-б.
4. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Автореферат, – Тошкент: 2019. 81-бет.
5. Toponyms formed on the basis of nation names BE Kilichev, MZQ Safarova International Journal of Progressive Sciences and Technologies 25 (1), 104-107.
6. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. BE Kilichev, MZQ Safarova Theoretical & Applied Science, 43-46.
7. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works ZB Pulatovich, KB Ergashovich, KB Farkhodovich ResearchJet Journal of Analysis and Inventions 2 (05), 379-390.
8. Safarova M. Z., Kilichev B. E., The Concept of Totemism and Ethnonym. Central asian journal of literature, philosophy and culture. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 121-124; Safarova M. Z., Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo'llanilishi. Научно-практическая конференция. – Бухоро. 2021.
9. Safarova Maftuna Zoir qizi. Etonimiyaning o'rganilishi. BuxDU ilmiy axboroti. Buxoro: 2022. 90-98-b.

UDC 81'373

LEXICO-SEMANTIC CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR RELATION TO THE LEXICAL LAYER

Z.Kh.Saidova, Independent researcher, Bukhara state university, Bukhara

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik qatlamlarning frazeologik birlik yaratish faollik darajasi, ular ichida aniqlangan tematik ko'rsatkichlarning frazeologik birlik hosil qilish imkoniyatlari chog'ishtirilayotgan tillarda bir xil emasligi haqida fiklar yuritilgan bo'lib, yuqori mahsuldor, o'rta mahsuldor va quyi mahsuldor leksik qatlamlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: leksik qatlamlar, frazeologik birliklar, mantiqiy-psixologik, lingvistik, somatizm, ruhiy holat.

Аннотация. В данной статье высказываются мнения об уровне активности лексических слоев в создании фразеологизмов, возможности выявленных в них тематических показателей для создания фразеологизмов неодинаковы в сравниваемых языках, высокопродуктивны, средне - обсуждаются продуктивные и малопродуктивные лексические слои.

Ключевые слова: лексические пласты, фразеологизмы, логико-психологические, языковые, соматизм, психическое состояние.

Abstract. This article discusses the degree of creating phraseological units of lexical layers. It is seen from the research that the possibilities of forming a phraseological unit of the thematic indicators identified in them and are not the same in Uzbek and English languages.

Key words: lexical layers, phraseological units, logical-psychological, linguistic, somatism, mental state.

The main important features of phraseological units as indirect nominative units are fully revealed both in the analysis of the denotative and connotative meanings of the meaning of phraseological units, in the analysis of the specific features of their internal form, and in the study of the component. The composition of phraseological units in terms of their nominative function is the main basis for their nomination of natural matter. Lexical units are directly involved in creating the entire phraseological structure of the language. The absolute majority of phraseological units are materially similar to independent lexemes. "In the lexical system of the language, a relatively small number of phraseological components are not found, that is, they are used only in the composition of phraseological units".

One of the important features of many words is that their informational possibilities are much wider than the scope determined by their immediate subject-conceptual combination. This expansion